




2021- yil yanvar-mart

2021- yilning yanvar- martda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi**Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik**

- 2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **53,9 %**ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **14,9** birlikni tashkil qildi.
- 2021- yilning yanvar-martida 3,1 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **30,1** foizga kam

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**Savdo
23,9 %****Sanoat
12,9 %****Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
45,9 %****Qurilish
4,4 %**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 728 ta, sanoatda 396 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1401 ta, qurilishda 133 ta, yashash va ovqatlanishda 162 ta, tashish va saqlashda 26 ta tashkil etilgan.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'Ichov birligi	2020- y,	2021- y,	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	26073	32820	6747
Yangi tashkil etilgan kichik korxonava mikrofirmalar soni	birlikda	1271	3128	1857
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	57,0	53,9	3,1
Sanoat	%	34,5	21,6	-12,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,3	99,3	0
Investitsiya	%	16,0	42,5	26,5
Qurilish	%	88,2	73,4	14,8
Chakana savdo	%	94,5	92,6	-1,9
Xizmatlar	%	69,1	67,4	-1,7
Yuk tashish	%	82,3	80,5	-1,8
Yuk aylanmasi	%	87,4	84,1	-3,3
Yo'lovchi tashish	%	94,6	97,0	2,4
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,3	97,7	0,4
Eksport	%	34,0	26,3	-7,7
Import	%	55,2	52,7	-2,5



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

**YaHM
53,9 %**

**Savdo
92,6 %**

**Sanoat
21,6 %**

**Qurilish
73,4 %**

**Investitsiya
42,5 %**

**Export
26,3 %**

**Xizmatlar
67,4 %**


**Import
52,7 %**

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2020- yil yanvar - mart	2021- yil yanvar- mart	(+/-)
Qashqadaryo viloyati	1271	3128	1857
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	248	445	197
Shahrisabz sh.	68	87	19
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	54	152	98
Dehqonobod	76	85	9
Qamashi	80	571	491
Qarshi	95	169	74
Koson	94	199	105
Kitob	66	283	217
Mirishkor	56	116	60
Muborak	48	75	27
Nishon	85	177	92
Kasbi	52	160	108
Chiroqchi	135	251	116
Shahrisabz	51	139	88
Yakkabog'	63	219	156



2021- yil yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da



2021- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qamashi tumani - 18,3 %, Qarshi shahri -14,2 %, hissalariga to'g'ri keldi,

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	farq, (+;-)
Jami	1271	3128	1857
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	269	1401	1132
Sanoat	218	396	178
Qurilish	96	133	37
Savdo	425	728	303
Tashish va saqlash	34	26	-8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	62	162	100
Axborot va aloqa	17	34	17
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	26	23	-3
Boshqa faoliyat turlari	124	225	101

Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-martda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

728 ta

Qishloq,
o'rmon va
baliqchilik
xo'jaligida

1401 ta

Sanoatda

396 ta



Qurilishda

133 ta

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2020- yil yanvar- mart	2021- yil yanvar- mart	Farqi (+;-)
Qarshi sh,	248	445	197
Chiroqchi tumani	135	251	116
Koson tumani	94	199	105
Kitob tumani	66	283	217
Shahrisabz tumani	51	139	88
Yakkabog' tumani	63	219	156
Qamashi tumani	80	571	491


2021- yilning yanvar-martda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Qamashi tumanida - 571 ta va Qarshi shahrida - 445 tani tashkil etdi,





2021- yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan, 14,9 birlikni tashkil etdi,


Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*




2021- yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirishkor tumanida 22,4 birlik, Kitob tumanida 20,1 birlik, Qarshi shahrida 19,7 birlik, Muborak tumanida 18,1 birlikni tashkil etgan, Kasbi tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 10,1 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

**2021- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha
faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***



2021- yilning yanvar- martida har 1000 aholiga
to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng
ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni
har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich
Mirishkor tumanida 22,4 birlik, Kitob tumanida 20,1 birlik, Qarshi shahrida
19,7 birlik, Muborak tumanida 18,1 birlik, Nishon tumanida 18,4 birlik,
Koson tumanida 17,1 birlik Shahrisabz tumanida esa 16,4 birlikni tashkil
etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shtigan holda)

**Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)**

**Eng yuqori
ko'rsatkich**

Mirishkor tumani
• 22,4 birlik.

**O'rtacha
ko'rsatkich**

Nishon tumani
18,4 birlik.

**Eng past
ko'rsatkich**

Kasbi tumani
• 10,1 birlik.

**Kichik tadbirkorlikning YaHMdag'i
ulushini dinamikasi, yanvar-mart
holatiga ko'ra, % da**

2021- yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlikning YaHMdag'i ulushi 53,9 % ni tashkil qildi. (2020-yilning yanvar-martda 57,0 %).

YaHMda kichik beznis ulishi o'tgan yilga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.

45,5%

2019- y.



57,0%

2020- y.

53,9%

2021- y.

Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Qashqadaryo viloyati	21,6	73,4	67,4	42,5
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh,	31,0	78,1	50,0	18,7
Shahrisabz sh,	74,6	48,4	72,3	87,8
<i>tumanlar</i>				
G'uzor	3,6	39,4	74,2	6,3
Dehqonobod	10,2	100,0	81,9	82,9
Qamashi	48,2	100,0	78,2	94,2
Qarshi	51,9	100,0	79,2	85,1
Koson	37,5	90,9	83,4	95,4
Kitob	94,0	100,0	82,7	65,5
Mirishkor	89,7	100,0	84,5	93,3
Muborak	13,7	41,6	69,8	59,1
Nishon	1,9	100,0	78,6	46,0
Kasbi	6,4	100,0	80,4	80,6
Chiroqchi	47,7	96,2	76,7	97,9
Shahrisabz	8,05	99,7	76,2	86,4
Yakkabog'	72,0	100,0	79,0	94,9

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Kitob (94,0 %),
Mirishkor (89,7%),
Shahrisabz (80,5 %)
Shahrisabz sh (74,6)
va Yakkabog' (72,0 %)
tumanlarida.


Qurilishda-

Dehqonobod (100,0 %),
Qarshi (100,0 %),
Kitob (100,0 %),
Mirishkor (100,0 %),
Kasbi (100,0 %)
Nishon (100,0 %) va
Yakkabog' (100,0 %)
tumanlarida.


Xizmatlarda-

Shahrisabz (88,8 %),
Yakkabog' (87,9 %)
Shahrisabz sh (88,7 %),
Qarshi (83,4 %) va
Qamashi (81,9 %)
tumanlarida.

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 11,1 million AQSh dollarini yoki umumiyligida eksport hajmining 26,3 %ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Shahrisabz shahar, Dehqonobod, Mirishkor, Nishon va Kitob tumanlarida – 100,0 %, eng past ko'rsatkich Qarshi tumanida – 0,2 % va G'uzor tumanida – 9,2 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi 22,5 million AQSh dollarini yoki umumiyl importning 52,7 % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdag'i ulushi, % da




2021- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Mirishkor tumanida – 100,0 % ni, eng past ko'rsatkich Kasbi tumanida – 14,2 % ni tashkil etdi.




2021 - yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 925,7 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2021- yilning yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (200,0 mlrd. so'm), Qarshi (131,5 mlrd. so'm) va Mirishkor (117,6 mlrd. so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Dehqonobod tumanida (13,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2021- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiylajmida kichik biznesning ulushi 21,6 foizni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Kitob tumani (94,0 %), Mirishkor tumani (89,7 %), Shahrisabz tumani (80,5 %) va Shahrisabz shahri (74,6 %)ni tashkil etdi. Nishon tumani (1,9%), G'uzor tumani (3,6%) ni kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2884,7 mlrd. soʻmni yoki umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasining 92,6 % ni tashkil etdi. Oʼsish surʼati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 0,2 foizga kamayayishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʼsish surʼati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (587,0 mlrd. soʻm), Chiroqchi (336,0 mlrd. soʻm) va Koson (323,1 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keladi.




2021- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 961,7 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 73,4 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 105,1 foizni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar- martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (240,0 mlrd. so'm), G'uzor (103,6 mlrd. so'm) va Qarshi (102,6 mlrd. so'm) tumanlarda qayd etildi.


2021-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 86,6 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 67,4 % ini tashkil qildi. 2020-yilning yanvar-martiga nisbatan 102,5 % pasayish kuzatildi.



2021-yilning yanvar- martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (526,5 mlrd. so‘m), Koson (142,4 mlrd. so‘m), Kitob (129,9 mlrd.so‘m) va Chiroqchi (116,2 mlrd.so‘m), tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 80,5 foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 1,8 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 84,1 foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 1,9 foizni tashkil qildi.




2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti - da yo'lovchi tashish xizmatlari -ning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,0 foizni tashkil etib, bu esa 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,6 foizga pasayishiga olib keldi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,7 foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 2,4 foizni tashkil qildi.




2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 16,4 % (212 ta), sanoatda - 13,8 % (179 ta), qurilishda - 10,7% (139 ta), savdoda - 33,7 % (437 ta), xizmatlar sohasida - 25,4 % (329 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan so'f tushumga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.




2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



**2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan
kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda
iqtisodiy vaziyatni baholash , % da
vaziyatini baholash,% da**



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning I choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatda 51,7 % ni, savdoda 48,7 % ni va sanoat sohasida 47,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 62,7 % ni, qurilish sohasida 48,2 % ni, sanoatda 46,9 % ni tashkil etdi.

**2021- yillar I choragida kuzatuvda ishtirok etgan
kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydag'i
o'zgarishlar istiaboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni
baholanishi,% da**


**Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi**

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydag'i o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda sohasida 89,3 % ni, xizmatlar 82,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydag'i o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 35,4 % ni, qurilishda 21,0 % ni tashkil etdi.

Ishbilarmonlik muhit kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: E.Begmurodov
Tel: (75) 220-03-94